



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOT VA MOLIYA VAZIRLIGINING BUYRUG‘I

5-noyabr 2024-yil.

23-204-son

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi xodimlarining Odob-axloq qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-oktabrdagi “Davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 595-sonli qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi (keyingi o‘rinlarda – Vazirlik) tizimida faoliyat yurituvchi xodimlarining xizmat faoliyatiga oid va xizmatdan tashqari odob-axloqi, jamoatchilik bilan munosabatlariga doir qoidalarga rioya etilishini ta’minlash maqsadida buyuraman:

1. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi xodimlarining Odob-axloq qoidalari (keyingi o‘rinlarda – Odob-axloq qoidalari) 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining Odob-axloq komissiyasi to‘g‘risidagi Nizom 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining Odob-axloq komissiyasi tarkibi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Vazirlik tizimiga kiruvchi hududiy, huzuridagi va tasarrufiy tashkilotlar mazkur buyruq bilan tasdiqlangan hujjatlar asosida bir hafta muddatda ichki hujjatlar ishlab chiqilishini, ularning qabul qilinishini hamda barcha xodimlarni ular bilan rasmiy (imzo orqali) tanishtirilishini ta’minlasin.

5. Belgilab qo‘yilsinki, Vazirlik xodimlari odob-axloq qoidalarini buzish holatlari bo‘yicha xizmat tekshiruvi rahbar ko‘rsatmasiga muvofiq, Odob-axloq komissiyasi tomonidan o‘tkaziladi hamda odob-axloq qoidalarining buzilishi qonunchilik

hujjatlariga muvofiq, intizomiy va boshqa turdagi javobgarlikka tortish uchun asos hisoblanadi.

6. Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish departamenti (S. Axmedov) Vazirlik markaziy apparati xodimlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Toshkent shahri va viloyat boshqarmalari hamda vazirlik tizimiga kiruvchi va uning huzuridagi hamda tasarrufiy tashkilotlarning rahbarlari hamda vazirlik nomenklaturasidagi xodimlarini Odob-axloq qoidalari bilan 10 kunlik muddatda yozma shaklda tanishtirsin.

Vazirlikka yangi ishga qabul qilanayotgan xodimlar bilan mehnat shartnomasini rasmiylashtirish bilan bir vaqtda ushbu buyruq bilan tanishtirilishini ta’minlasin.

7. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023-yil 22-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimi xodimlarining Odob-axloq qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 111-sonli buyrug‘i o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

8. Tashkiliy ishlar va ijro intizomi boshqarmasi (F. Hamdamov) – mazkur buyruqni Vazirlik markaziy apparatining tarkibiy bo‘linmalariga, shuningdek, hududiy boshqarmalari, vazirlik tizimiga kiruvchi va uning huzuridagi hamda tasarrufiy tashkilotlariga yetkazilishini ta’minlasin.

9. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qodiraman.

Vazir



D. Kuchkarov